

SURXONDARYO VILOYATINING YENGIL VA OZIQ-OVQAT SANOATINING RIVOJLANISHI

Ko'chkinova Munisa Jo'rayevna

Annotatsiya: *Mustaqillikka erishgach, barcha sohalarda bo'lgani kabi sanoatda ham tub o'zgarishlar yuz berdi. Surxondaryo viloyati sanoati o'tish davri qiyinchiliklari natijasida ba'zi sohalarda mahsulot ishlab chiqarish hajmi kamaydi, ayrimlari esa o'z faoliyatini to'xtatdi.*

Kalit so'zlar: *kooperatsiya, nodavlat sektor, profnastil, polietilen quvur, shlakablok, plitka, shpatlevka.*

Mahsulot ishlab chiqarishda nodavlat sektorining o'rnini ko'rinish boshladi. Masalan, 1999 yil ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining 92 foizi nodavlat sektorida ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2010 yilga kelib bu ko'rsatkich deyarli 100 foizga yetdi. Mavjud sanoat korxonalarini zamonaviy dastgohlar bilan ta'minlana boshlandi. Natijada, Jarqo'rg'on ip yigiruv-to'quv fabrikasi, Sho'rchi un kombinati kabi korxonalarini chet el zamonaviy uskunalari bilan qayta jihozlash hisobidan ishlab chiqarish quvvatlari bir yarim-ikki barobar oshdi. Xo'jaikon tuz konida yiliga 50 ming tonna osh tuzi ishlab chiqaruvchi korxonada, Denov yog'-ekstraksiya zavodida yiliga 10 ming tonna sovun ishlab chiqarish quvvatiga ega yangi liniya ishga tushdi. Viloyat hududida hozirda chet ellik hamkorlar bilan birgalikda qurilgan «Surxon Atlantik», «Surxonteks», «Oltin chigit» kabi ro'yhatga olingan 49 ta qo'shma korxonalaridan 44 tasi faoliyat yuritmoqda (2012 yil). 1999 yilda 20 qo'shma korxonada 800 mln. so'mlik yaqin mahsulotlar ishlab chiqargan bo'lsa, 2012 yilda mahsulot ishlab chiqarayotgan qo'shma korxonalar 104751,8 mln so'mlik mahsulot va xizmatlar ishlab chiqardi.

Viloyat sanoati respublikaning barcha hududlarida bo'lgani kabi mustaqillikning ilk yillarida turli iqtisodiy qiyinchiliklarga duch keldi. Bunga sabab sifatida mavjud ishlab chiqarishni tashkil etuvchi shakllaridagi (ixtisoslashuv, kooperatsiya) uzilishlar, boshqaruv tizimidagi o'zgarishlar, moliyaviy qiyinchiliklarni ko'rsatish mumkin. Natijada sanoat ishlab chiqarish hajmida o'sish darajasi pasayib bordi. Sanoat tarmoqlarida mahsulot ishlab chiqarish so'nggi yillarda eng past ko'rsatkichi 1993 yilda qayd etildi (99 %). Oldingi yillarda mavjud zahiralarda asosida sanoat mahsulotlari ishlab chiqargan bo'lsa, bu yilda iqtisodiy qiyinchiliklar tufayli ko'pgina korxonalar o'z ish faoliyatini to'xtatgan, ba'zilarida mahsulot ishlab chiqarish hajmi qisqargan. 1991-1996 yilgacha bo'lgan davrda viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 5 martaga ko'paygan bo'lishiga qaramay o'sish darajasi oldingi yillarga nisbatan past bo'ldi.(1-jadvalga qaralsin)

Statistik ma'lumotlarga ko'ra 1991 yil viloyatda 2130,7 mln. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqargan bo'lib, bu ko'rsatkich respublika sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining 3,3 foizini tashkil qilgan. Viloyatda mavjud sanoat tarmoqlarida 40ga yaqin turdagi sanoat mahsulotlari ishlab chiqariladi. Ularning asosiy qismini xalq iste'mol mahsulotlari tashkil etadi. Shu bois, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish yildan-yilga ortib bormoqda. Sanoat markazlari asosan mintaqaning tekislik qismida joylashgan bo'lib, transport yo'llari yaqinidagi IGO' qulay aholi manzilgohlarida shakllangan.

Oziq-ovqat sanoati mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ko'ra viloyat sanoatida ikkinchi o'rinni egallaydi. Uning un va un mahsulotlari (SHo'rchi, Jarqo'rg'on), yog' va sut mahsulotlari (Denov, Termiz), go'sht va go'sht mahsulotlari (Termiz), meva konservalari (Denov, Oltinsoy, Sariosiyo), sharob va sharob mahsulotlari, spirtli ichimliklar (Denov, Oltinsoy) kabi ishlab chiqarish sohalari mavjud. Ushbu sanoat tarmog'ining 20 dan ortiq sanoat korxonalarida SHerobod tuz zavodi, SHo'rchi un kombinati, Termiz go'sht kombinati, Denov sharob-arqo zavodlari mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ko'ra sezilarli salmoqqa ega. Ma'lumki, Surxondaryo viloyatida neft va gaz qazib olinadi. Shu bilan birga mintaqada sanoatida o'ziga xos o'rin tutuvchi asosan maxalliy xom ashyolar asosida mahsulot ishlab chiqaruvchi tarmoqlardan biri yoqilg'i-energetika sanoatidir. Ko'mir asosan SHarg'un konidan yopiq usulda qazib olinib, respublikadagi asosiy toshko'mir koni hisoblanadi. Barcha tarmoqlarda bo'lgani kabi ushbu tarmoqda ham mahsulot ishlab chiqarish hajmi 1991 yilga nisbatan kamayib ketgan. Agar 1991 yilda 199 ming tonna ko'mir qazib olingan bo'lsa (bu respublika umumiy ko'rsatkichining 3,3% ni tashkil etadi), 2012yilga kelib bu ko'rsatgich 109 ming tonnani tashkil etdi (respublika umumiy ko'rsatkichining 3,6%). Bunday holat ko'mir qazib olish eskirganligi va toshko'mirni energiya oluvchi manbaa sifatida ishlatish maqsadga muvofiq emasligi natijasida yuzaga keldi.

Neft qazib olish viloyat sanoat mahsulotlarining 2,1% ni ta'minlaydi va bu ko'rsatkich ham so'nggi yillarda keskin pasaymagan. Masalan, 1991 yilda 136,8 ming tonna neft qazib olingan bo'lsa, 2010 yilga kelib bu ko'rsatkich 142,4 ming tonnani tashkil etdi. 2010 yil ma'lumotlariga ko'ra viloyat respublikada qazib olingan neftning 2,9 % ni bergan. Viloyat nefti tarkibida turli qo'shimcha moddalarning ko'pligi, qayta ishlovchi korxonalarining yo'qligi sababli hozirda asosan yo'l qurilishida bitum sifatida foydalaniladi, bir qismi Qorovulbozor neftni qayta ishlash zavodiga yuboriladi. Viloyatda 2013 yil 1-yarim yilligida jami 1097 ta, shundan 23 ta yirik, 1074 ta kichik sanoat korxonalarini faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ushbu korxonalarda 16711 nafar ishchilar mehnat qilishmoqda.

Viloyatda 2012 yilda jami 513,4 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, o'tgan yilning o'tgan yilga nisbatan o'sish darajasi 112,7 foizni tashkil qildi. Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari 226,1 ming so'mdan iste'mol mollari 83,9 ming so'mdan to'g'ri keldi. Viloyat yalpi hududiy mahsulotida sanoat mahsulotlarining ulushi 9,4 foizni tashkil etdi.

Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari tarmoqlar bo'yicha tahlil qilinganda;

- qurilish materiallari sanoatida 128,9 foizga,
- yengil sanoatda 111,8 foizga,
- yoqilg'i sanoatida 121,5 foizga,
- elektorenergetika sanoatida 112,7 foizga
- o'rmon, yog'ochini qayta ishlash va qog'oz-tsellyuloza sanoati 115,6 foizga,
- un-krupa va kombikorma sanoati 110,1 foizga,
- Oziq-ovqat sanoati 120,8 foizga,
- Mashinasozlik va metalni qayta ishlash sanoati 120,5 foizga,
- Qora metal sanoati 336,7 foizga o'sishga erishildi.

Shu bilan bir qatorda 2013-2015 yillarda Surxondaryo viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturiga muvofiq sanoat sohasida umumiy qiymati 10,6 mln dollarlik 119 ta loyiha amalga oshirilish va natijada 1904 ta ish o'rni tashkil etilishi belgilangan bo'lib amalda umumiy qiymati 12,8 mln dollarlik 145 ta loyiha foydalanishga topshirilib, 2187 ta ish o'rinlari tashkil etildi. Amalga oshirilgan loyixalar tarmoqlar kesimida tahlil qilinadigan bo'lsa, ximiya va neftximiya sanoatida 7 ta loyiha, qurilish sanoatida 50 ta loyiha, oziq-ovqat sanoatida 34 ta loyiha, yengil sanoatda 36 ta loyiha, charm poyabzal sanoatida 3 ta loyiha, mebel va qog'oz sanoatida 15 ta loyihalar amalga oshirildi. Misol uchun, Termiz shahridagi "Boysun Biznes servis" xususiy korxonasida 200,0 ming dollar investitsiya evaziga qurilish materiallari (shlakablok, plitka, shpatlevka mahsulotlari) ishlab chiqarish yo'lga qo'yilib, 57 ta yangi ish joylari yaratildi.

Shuningdek, Boysun tumanidagi "Daxbed" kichik korxonasida profnastil, polietilen quvur ishlab chiqarish, "Safar Jo'ra Bahrom" MCHJda profnastil ishlab chiqarish, Denov tumanidagi, "Denov-Ravnaq kamoli" xususiy korxonasida poyabzal ishlab chiqarish kabi yangi turdagi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Ushbu amalga oshirilgan loyihalar xisobiga 145 ta korxonadan 44 tasida jami 1,4 mlrd. so'mdan ortiq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Ularni tumanlar kesimida ko'rib chiqsak, Termiz shahrida 7 ta, Angorda 4 ta, Boysunda 5 ta, Denovda 5 ta, Jarqo'rg'onda 3 ta, Qumqo'rg'onda 4 ta, Oltinsoyda 2 ta, Sariosiyoda 4 ta, Termiz tumanida 1 ta, Uzunda 3 ta, Sherobotda 5 ta, SHo'rchida 5 tadan to'g'ri keladi. Shu bilan birga sanoat sohasida umumiy qiymati 10,8 mln.



dollarga teng bo'lgan 175 ta loyixa (5044 ta yangi ish o'rnini) tashkil etilishi rejalashtirilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullaev, A. & Kurpayanidi, K., (2021). Covid-19 pandemic in central Asia: policy and environmental implications and responses for SMES support in Uzbekistan. In E3S Web of Conferences (Vol. 258, p. 05027). EDP Sciences.
2. Kodirov, S. (2021). Issues of business cooperation in the national economy of Uzbekistan. Экономика и социум, (7), 79-88.
3. Kurpayanidi, K., Abdullaev, A., & Muhsinova, SH. (2021). Analysis of the macroeconomic policy of the Republic of Uzbekistan. Obshchestvo i innovacii, 2(6/S), 248-252.
4. Mirzaev, A. T. (2020). Assessment of cluster formation in management of recreational activity. ISJ Theoretical & Applied Science, 04 (84), 605-610. <https://dx.doi.org/10.15863/TAS.2020.04.84.101>
5. Mirzaev, A.T (2018). The level of use of tourist attractions in the regions and the factors affecting them, Economics and Innovative Technologies: Vol. 2018 : No. 3, Article 19. Available at: <https://uzjournals.edu.uz/iqtisodiyot/vol2018/iss3/19>
6. Musaevna, U. Z., & Anvarjonqizi, X. D. (2021). To the Issues of Improving Personnel Motivation in Industrial Enterprises. Academic Journal of Digital Economics and Stability, 1, 70-80.